



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QASHQADARYO VILOYATI
HOKIMINING
QARORI**

2024-yil 7-sentabr

395-4-0-Q/24

Qashqadaryo viloyati
hokimligi

Kuchini yo‘qotgan

Qashqadaryo viloyati sog‘liqni saqlash boshqarmasi Kitob tumani tibbiyot birlashmasiga Kitob tumani “Jilisuv” qishloq fuqarolar yig‘ini hududidagi 12-sonli oilaviy poliklinikaning “Navbahor” shoxobchasi amalda foydalanib kelinayotgan yer uchastkasini doimiy foydalanish huquqi asosida ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 5-moddasi va Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi “Yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma‘muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 543-son qaroriga muvofiq, viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi Kitob tumani tibbiyot birlashmasining 2024-yil 20-avgustdagi 01/114-son buyurtma xatini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 10-, 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Qashqadaryo viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasining ijobiy xulosasi, hududiy arxitektura-shaharsozlik kengashining kelishuvi va vakolatli tashkilotlarning ijobiy xulosalari hamda kelishuvlari ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Qashqadaryo viloyati sog‘liqni saqlash boshqarmasi Kitob tumani tibbiyot birlashmasiga Kitob tumani “Jilisuv” qishloq fuqarolar yig‘ini hududidagi 12-son oilaviy poliklinikaning “Navbahor” shoxobchasi amalda foydalanib kelinayotgan, qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan 0,1203 gektar yer maydoni doimiy foydalanish huquqi asosida ajratilsin.

3. “Kadastr va ro‘yxatdan o‘tkazish integratsiyalashgan axborot tizimi” orqali avtomatik ravishda shakllantirilgan elektron xarita ushbu qarorga ilova qilinsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi (G‘.Hamroyev):

ushbu qaror hamda yer maydoni bo‘yicha tayyorlangan hujjatlar yig‘majildi, vakolatli tashkilotlarning xulosalari va kelishuvi bo‘yicha materiallarni bir ish kuni ichida elektron tizimdan yuklab olib, ma’lumotlarni umumlashtirsin;

ushbu yer uchastkasiga kadastr pasportini rasmiylashtirsin;

ushbu yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni “Kadastr va ro‘yxatdan o‘tkazish integratsiyalashgan axborot tizimi” orqali ikki ish kuni davomida davlat ro‘yxatidan o‘tkazsin.

5. Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi va Kitob tumani tibbiyot birlashmasi bilan birgalikda ajratib berilgan yer maydonidan samarali va maqsadli foydalanilishini monitoring qilib borsin.

6. Ajratilgan yer maydonidan ikki yil muddatda foydalanilmaganda mazkur qaror O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 36-moddasiga ko‘ra bekor qilinishi belgilab qo‘yilsin.

7. Mazkur qaror bir kun muddatda viloyat hokimligining www.qashqadaryo.uz rasmiy veb-saytida e’lon qilinsin.

8. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari M.Azizov zimmasiga yuklatilsin.

Viloyat hokimi



M.Azimov